

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA № 1317

Toshkent sh.

2024-yil " 21 " -fevral

Keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladigan **Toshkent davlat yuridik universiteti** nomidan 2020-yil 25-sentyabrdagi 08-176-son buyruq asosida harakat qiladigan prorektor **A.A.Iminov** bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb yuritiladigan "**CERT International**" ma'suliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida ish ko'ruvchi rahbari **Xabibulin M.R.**, ikkinchi tomondan mazkur xizmat shartnomasini tuzib imzoladilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Ijrochi mazkur shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan texnik shartlarga muvofiq ISO 37001:2016 va O'z DSt ISO 37001:2019 standartlari talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini sertifikatlash xizmatlarini amalga oshirish hamda sertifikat berish xizmati majburiyatlarini, Buyurtmachi esa Ijrochiga bajarilgan ishlarni qabul qilish va to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu shartnomada qamrab olingan xizmatlar doirasi sertifikatlashtirish auditini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Nazorat auditorlarini o'tkazish tomonlarning alohida kelishuvi yoki shartnomasi bilan tartibga solinadi.

II. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

2.1. Mazkur shartnomaning 1 -ilovasiga muvofiq Ijrochi tomonidan bajariladigan, eng yaxshi takliflarni tanlash savdosi natijasida aniqlanib, Xarid komissiyasining qarori (2024-yil 15-fevraldagi bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymatining barcha soliqlar shu jumladan QQS bilan ishlarni bajarish qiymati 101 325 000 so'm (Bir yuz bir million uch yuz yigirma besh ming so'm) ni tashkil etadi.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, buyurtmachining boshqaruv tizimidagi bartaraf etib bo'lmaydigan nomuvofiqliklar aniqlansa va hujjatlarni tahlil qilish yoki korxonadagi faoliyatni tekshirish orqali buyurtmachi tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning samaradorligini qayta tekshirish zarur bo'lsa, auditorlarning qo'shimcha ishlarining xarajatlari, sanab o'tilgan o'zgarishlar shartnoma bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirish yuzasidan o'zgartirish Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida imzolanadigan qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

III. Ijrochi majburiyatlari

3.1. Ijrochi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

Shartnomning ko'rsatilgan xizmatlarni shartnoma 1-ilovasida ko'rsatilgan muddatlar va shartlarda bajarish;

qilingan ishlarni hisobotini har oyning oxirida Buyurtmachi taqdim etish;

agar nomuvofiqliklar bo'lmasa yoki auditorlar davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilsa, sertifikat berish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2. Ijrochi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan bajarilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

IV. Buyurtmachining majburiyatlari

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

ijrochi vakillari tomonidan xizmatlar ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish (binolar, ofis jihozlari, ish joylarida xodimlarning mavjudligi va boshqalar),

tashkilotchi vakillariga vazifani bajarish uchun barcha kerakli ma'lumotlar va vositalardan foydalanish imkoniyatini berish, ularni audit uchun muhim bo'lgan va audit natijalari bo'yicha qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida aniq va to'liq ma'lumot bilan ta'minlash;

ijrochini sertifikatlangan boshqaruv tizimiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish. Xususan, bu buyurtmachi tashkilotini yoki uning bir qismini sotib olish/sotish, mulkdagi har qanday o'zgarishlar, boshqaruv tizimi sohasidagi o'zgarishlar, jarayonlardagi sezilarli o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratni va mazkur shartnomada qayd etilgan Ijrochi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Ijrochidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Ijrochining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

ushbu shartnoma shartlariga muvofiq bajarilgan ishlarni haqini Ijrochiga to'lash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

V. Ishlarni bajarish va qabul qilish tartibi

5.1. Ijrochi 2024-yil ___-fevraldan boshlab xizmat ko'rsatishga kirishadi.

5.2. Ishlarni bajarish muddati 90 kalendar kunni tashkil qiladi. Bunda xizmatlar Buyurtmachi tomonidan qabul qilish va topshirish dalolatnomasiga e'tirozlarsiz imzo qo'yilgan kun ishlar to'liq bajarilgan kun deb hisoblanadi.

5.3. Ijrochi har oyning oxirida yo'llanma xatga ilova qilgan holda bir oyda qilingan ishlar haqida ma'lumotni Buyurtmachiga kelishish uchun topshiradi.

5.4. Berilgan ma'lumotnoma bo'yicha e'tirozlar bo'lganda 2 ish kunida Buyurtmachi Ijrochiga tegishli e'tirozlarni ko'rsatgan holda yozma shaklda yuboradi.

5.5. ISO 37001 standartiga muvofiq boshqaruv tizimini sertifikatlash tartibi va CERT International sertifikatlashtirish belgisidan foydalanish huquqi Ijrochining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bitim (keyingi o'rinlarda "kelishuv" matni bo'yicha) bilan tartibga solinadi:

<https://certgroup.org/sertifikacziya/agreement/> (xalqaro) va <https://certin.org/agreement-uz/> (milliy). Shu bilan birga, ushbu shartnomani imzolash orqali mijoz shartnomaning barcha shartlari bilan to'liq tanishganligini va uning shartlarini qabul qilganligini tasdiqlaydi. Agar buyurtmachi bitim qoidalari bo'yicha kelishmovchiliklarga duch kelsa, tomonlar ushbu kelishmovchiliklarni hal qilish va kelishuv uchun maxsus shartlarni rasmiylashtirish huquqiga ega.

VI. To'lovlar va hisob-kitoblar

6.1. Buyurtmachi Ijrochiga shartnoma buyicha ishlarni umumiy, shartnomaviy-joriy qiymatining 30 foizi 30 397 500 so'm (O'ttiz million uch yuz to'qson yetti ming besh yuz so'm) miqdorida mablag'ni oldindan o'tkazib beradi.

6.2. Qolgan qismi haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda, tegishli sertifikat olingandan keyin hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish va topshirish dalolatnomalari imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida amalga oshiriladi.

6.3. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 90 kun mobaynida bajarishga kirishmagan taqdirda, Ijrochi bu haqda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Ijrochi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan

ozod qilinmaydi.

VII. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

7.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Ijrochi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

7.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

VIII. Shartnomani bekor qilish

8.1. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin ishlarni bajarishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Ijrochi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

Ijrochi tomonidan shartnoma shartlari ishlarni bajarish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

8.2. Ijrochi:

ishlarning bajarilishi Ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

8.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Ijrochining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ishlarni 5 (besh) kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Ijrochiga to'laydi.

8.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi. Bunda

8.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

8.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

IX. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

9.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

9.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni

buzganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Ijrochi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Ijrochini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

9.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

X. Nizolarni hal etish tartibi

10.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi va talabnoma tartibi bilan hal qilinadi.

10.2. Taraflarning talabnoma tartibi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

XI. Alohida shartlar

11.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik organida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2024-yil 31-dekabrqa qadar amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

11.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.



11.4. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni Buyurtmachi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga kafolat beradi.

11.5. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Buyurtmachi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir yetishga majburlashdan iborat faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

"1008" ishonch telefoni; Telegram-kanali ("@anticorbot"); Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki yelektron pochta.

11.6. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Buyurtmachi	Ijrochi
Toshkent davlat yuridik universiteti	“CERT International” MCHJ
Tashkent sh. Yunusobod tumani, Sayilgox, 35 uy	Tashkent sh. M.Ulug’bek tumani, Mustaqillik ko’chasi, 59 uy, 5-qavat
h/r 400 10860262667094100009002	h/r 20208000204948543001
MOLIYA VAZIRLIGI G‘AZNACHILIGI AMALIYOT BOSHQARMASI	Toshkent Operatsion bo’limi ATB "KAPITAL BANK"
MFO 00014	MFO 00974
INN 201122349	INN 302142218
HKKM “MARKAZIY BANK”	IFTK 70220
Toshkent shahar bosh boshqarmasi G‘AZNA HISOBVARAG‘I: 23402000300100001010	QQS to’lovchi raqami ko’di: 326040027635
 M.O’ A.A.Iminov	 M.O’ M.R.Xabibulin



D. Abduljabbar

**ТЕХНИЧЕСКОЕ ЗАДАНИЕ по организацию услуг по сертификации Системы
• Менеджмента Противодействия Коррупции (далее СМПК) в соответствии с
требованиями стандарта ISO 37001:2016 и O'z DSt ISO 37001:2019**

Основными задачами сертификации являются:

- Анализ документации СМ, подготовка к аудиту, составление планов и отчетов;
- Проведение оценки (аудита) Системы Менеджмента организации (ЗАКАЗЧИКА) в Национальной Системе Сертификации на соответствие требованиям национального стандарта O'z DSt ISO 37001:2019;
- Проведения оценки (аудита) системы менеджмента организации (ЗАКАЗЧИКА) в Международной Системе Сертификации Европейским Органом по Сертификации, в соответствии с требованиями Европейского стандарта ISO 37001:2016 с включением в международную базу IAF – www.iafcertsearch.org;
- Выдача сертификата ISO 37001 (включая регистрацию и права использования сертификата, товарного знака/марки) в течение срока действия, с актуальной и действующей национальной и международной аккредитацией Органа по сертификации.